

Yondosh mavzu:
O'zbek bozori

Qiymatlar formulalari,
diagrammalar, jadvallar



1. Jadvaldan foydalanib, har bir xaridning umumiy qiymatini aniqlang.



Suyakli mol
go'shti, 1 kg
58 000 so'm



Sabzi, 1 kg
5 000 so'm



O'simlik yog'i,
1 litri
24 000 so'm



Qo'y go'shti,
1 kg
78 000 so'm



Tuxum,
10 donasi
12 000 so'm



Piyoz, 1 kg
7 000 so'm





Kartoshka,
1 kg
6 000 so'm



Guruch, 1 kg
14 000 so'm



Shakar, 1 kg
17 000 so'm



2. C (qiymat), a (narx), n (miqdor)ni bog'lovchi uchta formula yozing.

a) Agar $n = 7$, $a = 2\ 300$ bo'lsa, C ni hisoblang.


b) Agar $C = 98\ 000$, $a = 49\ 000$ bo'lsa, n ni hisoblang.

d) Agar $C = 77\ 000$, $n = 11$ bo'lsa, a ni hisoblang.

6. Takrorlash. Formulalar



3. Ushbu sxema bo'yicha yechiladigan xaridga doir bir nechta masala o'ylab toping. Tuzgan masalalaringizdan birining yechimini yozing.



4. Masalalar uchun ifodalar tuzing. O'ylab ko'ring, ularni qanday qilib tez hisoblash mumkin?


a) Bozorda shaftoli uchun $68\,000$ so'm, uzum uchun $39\,000$ so'm, olma uchun $32\,000$ so'm to'landi. Mevalar uchun jami necha so'm to'landi?

b) Xaridlar ro'yxatida go'sht va tovuq bor. Go'shtning umumiy qiymati $230\,000$ so'm, tovuq go'shtining umumiy qiymati $190\,000$ so'm. Sotuvchi 30 ming so'm chegirma qildi. Xarid uchun qancha to'landi?

d) Onamning hamyonida $900\,000$ so'm bor. Onam avval $165\,000$ so'mga ko'ylak, keyin $135\,000$ so'mga shim sotib oldilar. Onamning hamyonida qancha pul qoldi?



5. Har bir pecheniyning qalinligi bir xil. Qaysi pecheniy uchun ko'proq xamir ishlatilgan?




6. Pecheniy to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi qutiga qadoqlangan. Qutining bo'yi 42 cm, eni undan 26 cm qisqaroq. Uning balandligi 5 dm 3 cm. Qutining hajmini hisoblang.





7. Savollarga diagramma asosida javob bering.

O'zbekistonda palovning o'rtacha narxi



- Kuzatish davrida palovning narxi qanchaga oshdi?
- 2021-yil bahorida palovning narxi qancha edi?
- Bir yil davomida: 2020-yil sentabrdan 2021-yil sentabrgacha narx qanday o'zgargan?



8. Tushirib qoldirilgan amal ishoralarini shunday qo'yingki, natijada to'g'ri tengliklar hosil bo'lsin.

$$2 \ 2 \ 2 \ 2 = 111$$

$$3 \ 3 \ 3 \ 3 \ 3 = 100$$

$$5 \ 5 \ 5 \ 5 \ 5 = 110$$

$$7 \ 7 \ 7 \ 7 = 7$$



9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. To'rt xonali qiymatlarni kamayish tartibida yozib, odatda, kamyob dizaynga ega kiyim va poyabzallarni sotadigan do'kon nomini bilib oling.

A $220\ 657 - 9 \cdot 22\ 600$

B $222\ 000 : 37 + 1\ 256$

I $1\ 903 + 4 \cdot 12$

K $1\ 318 - 46\ 000 : 230$

T $22\ 988 : 4 - 1\ 819$

U $322\ 635 : 15 - 205 \cdot 77$



10. Furqat aka bozordan 1 kilogrami 78 000 so'mdan 2 kg go'sht, 14 000 so'mdan 5 kg guruch, 17 000 so'mdan 7 kg shakar sotib oldi. Agar unda 3 000 000 so'm bo'lsa, qancha puli qolgan?

7. Takrorlash. Ish unumdorligiga doir masalalar



Yondosh mavzu:
O'zbekiston hunarmandchiligi

Ketma-ketliklar,
ish unumdorligi,
vaqt, ish hajmi



1. Qonuniyatni aniqlang va narsalarni sanang.



20 296



20 298

...



20 312



7 999 997



7 999 999

...



8 000 021



659 785



659 796

...



659 884



2. Ifodalarning qiymatini toping. Darsda nima haqida gap boradi?

E $46 \cdot 2 \cdot 5$

N $32 \cdot 5 \cdot 5$

H $2 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 25$

M $5 \cdot 2 \cdot 6 \cdot 2 \cdot 5$

T $4 \cdot 25 \cdot 7$

A $9 \cdot 25 \cdot 4$

600	460	1 000	800	900	700



3. Noma'lum miqdorlarni toping.

	Ish unumdorligi, v	Ish vaqti, t	Ish hajmi, A
	11 624	8	?
	?	5	1 425
	6	?	42 216

7. Takrorlash. Ish unumdorligiga doir masalalar



4. Ifodalar tuzing va savollarga javob bering.

- Avtomat soatiga 6 480 quti sut qadoqlaydi. U bir minutda necha quti sut qadoqlaydi?
- Avtomatning ish unumdorligi 1 minutda 160 quti dorini qadoqlashga mo'ljallangan. Avtomat 1 soatda necha quti dorini qadoqlaydi?
- Bir smenada sariyog' qadoqlash mashinasi 24 000 quti sariyog' qadoqlaydi. Agar avtomatning ish unumdorligi soatiga 3 000 quti bo'lsa, smena necha soat davom etgan?



5. Masalani yechishda jadvaldan foydalaning.

Kulol birinchi kun 40 ta ko'za yasadi, ikkinchi kun esa birinchi kundagidan 16 ta ortiq ko'za yasadi. U hammasi uchun 12 soat sarfladi. Agar kulolning ish unumdorligi o'zgarmagan bo'lsa, u har kuni necha soat ishlagan?

	A	v	t
I	40 ta	Bir xil	? h
II	?, 16 ta ko'p		? h



6. Diagrammadan foydalanib, savollarga javob bering.



- 1 ta ipak ko'ylak uchun necha metr ip kerak? U necha kilometr ga teng?
- 27 ta ipak ko'ylak tikish uchun nechta tut daraxti kerak bo'ladi?
- Agar bir g'altak ip 100 m bo'lsa, bir tup tut daraxtidan necha g'altak ip olish mumkin?

7. Takrorlash. Ish unumdorligiga doir masalalar



7. Tenglamalarni yeching.

a) $74 \cdot (x + 456) - 24\,732 = 10\,492$

b) $(1835 - y) : 9 + 1709 = 1824$



8. Ikki gilamdo'z gilam to'qimoqda. Birinchi gilamdo'z uzunligi 3 m, eni 2 m bo'lgan gilamni 96 kunda to'qib bo'ldi. Ikkinchi gilamdo'z uzunligi 5 m, eni 4 m bo'lgan gilamni 360 kunda to'qib bo'ldi. Qaysi gilamdo'zning ish unumdorligi yuqori?



9. Hunarmandning savatida qizil, sariq va yashil rangli 15 dona ip kalavasi bor. Qizil kalavalar sariqlarga qaraganda 7 marta ko'p. Savatda nechta yashil kalava bor?



10. Ipakchi rassomning gaplariga ko'ra, bu daraxtning mevalari, ildizlari va barglaridan qizil, jigarrang, sariq va yashil rangli bo'yoqlar olish mumkin ekan. Amallarni to'g'ri tartibda bajaring va bu qaysi daraxt ekanini toping.

$$267\,120 : (27 \cdot 34 - 176) \cdot 42 - 178\,659 : 351 + 898\,989 : 13 - 16\,646$$

A 509

D 15 120

A 14 611

T 67 118

T 360

X 83 764

T 918

I 75 209

R 69 153

U 742



11. Jadvalni to'ldiring va masalani yeching.

Birinchi ustaga 150 ta laganga, ikkinchisiga esa undan 60 ta ko'p laganga buyurtma berildi. Birinchisi bu ishga 25 soat, ikkinchisi esa 5 soat ko'p vaqt sarfladi. Kimning ish unumdorligi yuqori?

	Ish unumdorligi, v	Ish vaqti, t	Ish hajmi, A
I usta			
II usta			

8. Takrorlash. Tenglamalar va tengsizliklar

Yondosh mavzu:
Milliy bezaklar

Tenglamalar,
tengsizliklar,
harfiy ifodalar



1. Tenglamaning noma'lum hadi qanday topilishini eslang.
Ushbu darsda qaysi kasb egasi haqida so'z borayotganini aniqlang.

L	B	A	R	I	K	G	N	O	P	R	S	T	Z
17	10	450	5	320	6	4	105	45	130	120	64	90	79

$$x - 42 = 37$$

$$800 - t = 350$$

$$16 \cdot n = 80$$

$$360 : m = 3$$

$$110 + z = 560$$

$$y + 58 = 62$$

2. Qo'shish va ayirish xossalaridan foydalanib, ifodalarni soddalashtiring.

$$390 + z + 510$$

$$t + 184 + 16$$

$$(560 + m) - 140$$

$$(n + 117) - 13$$

$$k - 380 - 120$$

$$650 - 170 - d$$

3. 6, 12, 36, 60 sonlaridan qaysilari tengsizliklarning yechimlari ekanini tekshiring.

$$650 - 8 \cdot m > 420;$$

$$n : 6 + 470 < 480.$$

4. Zargarlik do'konida 399 ta tilla uzuk, ulardan 5 marta ko'p kumush uzuk bor. Uzuklar 7 tadan qilib qutilarga solindi. Nechta quti kerak bo'lgan?



8. Takrorlash. Tenglamalar va tengsizliklar



5. Tengsizliklarni yozing. Noto'g'ri tengsizlikni toping.

- a) 439 soni 291 va 187 sonlari yig'indisidan kichik.
- b) 167 soni 1 134 va 9 sonlari bo'linmasidan katta.
- d) 198 va 1 sonlari ayirmasi 198 va 1 sonlari bo'linmasidan katta.



6. Uzunliklar qo'yiladigan taglik to'g'ri to'rtburchak shaklida. Taglikning bo'yi 315 mm va eni 20 cm. Uning perimetri va yuzini toping.



7. Ushbu tengsizliklarning yechimi bo'lgan bir xonali sonlarni sanab bering.

$$y < 8$$

$$z > 6$$

$$k < 103 - 96$$

$$b > 141 - 133$$

$$12 - t < 7$$

$$5 + m > 14$$



8. Noma'lumlarning berilgan qiymatlari uchun ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

- a) Bir oyda usta n ta tilla bilakuzuk, 28 ta kumush va 29 ta tilla uzuk yasadi. Usta oy davomida nechta zargarlik buyumlari yasagan? ($n = 71$)
- b) Savdo yarmarkasiga 37 dona marvaridli marjon va 43 dona feruza toshli marjon olib kelindi. Yarmarkaning birinchi kuni x dona marjon sotilgan bo'lsa, qancha marjon qolgan? ($x = 37$)
- d) Usta uch xil toshdan zargarlik buyumlari yasaydi. Uning ish dastgohi oldida jami t ta tosh bor. Ulardan 312 tasi yoqut, 288 tasi feruza va qolganlari durlar. Ustada nechta dur bor? ($t = 800$)



9. Tenglamalar tuzing va ularni qulay usulda yeching.


$$+ 165$$

$$387 + 265$$


$$- 301$$

$$267 + 199$$

8. Takrorlash. Tenglamalar va tengsizliklar



10. Hisoblang. Ushbu toshning nomini aniqlang.

$$3\ 025 : 5 + 183 \cdot 65 - (23\ 560 - 19\ 289) + 96\ 463 : (6\ 004 - 927)$$

U 11 895

I 8 229

L 12 500

Q 605

O 5 077

K 8 248

M 9 456

T 19

Y 4 271



11. Boshqotirmaning yeching.



10



4



2



?



12. Vitrinadagi zargarlik buyumlari to'rtburchak shaklidagi shisha ostida saqlanadi. Shishaning bo'yi 75 cm, eni esa undan 190 mm qisqa. Agar bir kvadrat detsimetr oyna 640 so'm tursa, unda oyna uchun qancha pul to'lash kerak bo'ladi?



13. Tenglamalarni yeching va taqinchoqlarning nomini aniqlang.

$$27\ 200 - y = 15\ 127 + 4\ 361$$



$$x - 3\ 721 - 1\ 579 = 3\ 356$$



$$z + 14\ 872 = 8\ 587 + 9\ 186$$



7 712	2 901	8 656
Zebigardon	Tumor	Munchoq

9. Takrorlash. Koordinata nuri va burchagi



Yondosh mavzu:
O'zbekistonning diqqatga
sazovor joylari

Sonli nur,
koordinata burchagi



1. Bir xil rangdagi raqamlarni nima birlashtiradi?




2. Juft sonlarni tanlab oling va ularni o'sish tartibida joylashtiring.
Qanday so'z hosil bo'ldi? Bu nima degani?

A	N	I	R	CH	S	T	L	P	O	G	H	B	E
219	390	104	48	91	302	356	107	11	370	78	211	19	58



3. Har bir nurdagi bo'limlar qiymati nimaga teng? Tushirib qoldirilgan sonlarni ayting.



4. Sonli nur yordamida tengsizliklarni yeching.

a) $x < 12$


b) $4 < x < 10$

d) $9 - x > 2$.

9. Takrorlash. Koordinata nuri va burchagi



5. Koordinata burchagidagi inshootlarning koordinatalarini ayting. Bular qanday inshootlar?



6. Daftaringizga koordinata burchagini chizing. Burchak ichidagi nuqtalarni belgilang.

$A (1;4)$, $B (2;5)$, $C (2;6)$, $D (3;6)$, $E (4;7)$, $F (5;6)$, $G (6;6)$, $H (6;5)$, $I (7;4)$, $J (6;3)$, $K (6;2)$, $L (5;2)$, $M (4;1)$, $N (3;2)$, $O (2;2)$, $P (2;3)$.

Bu nuqtalarni ketma-ket tutashtiring. Nima hosil bo'ldi?



7. Masalaga ifoda tuzing va uni yeching.

Registon maydoniga dushanba kuni 1 300 nafar, seshanba kuni undan 240 nafar ko'p, chorshanba kuni esa dushanba kunidagidan 130 nafar kam sayyoh tashrif buyurdi. Registon maydoniga shu uch kunda jami necha nafar sayyoh tashrif buyurgan?



8. Tenglamalarni yeching.

$$(340\,724 - 339\,224) \cdot x + 23\,784 = 263\,413 - 227\,629$$

$$(125\,828 + 543\,772) : y + 19\,230 = 96\,324 - 75\,894$$




9. Hisoblang.

$$5\text{ h }38\text{ min} + 2 \cdot 1\text{ h }49\text{ min} - (4\text{ h }57\text{ min} : 3 + 187\text{ min}).$$

9. Takrorlash. Koordinata nuri va burchagi



10. Soʻzlarni harflarning koordinatalari boʻyicha yozing. Qaysi soʻz ortiqcha?



- a) (0;4), (0;10), (2;12), (1;9)
- b) (12;2), (0;10), (2;12), (1;9)
- d) (7;8), (11;6), (12;10)
- e) (8;5), (2;12), (4;0)
- f) (4;3), (7;2), (11;6), (1;1)




11. Agar sayyoh 3 dona doʻppi sotib olsa, unda 70 000 soʻm qoladi. Agar u 5 dona doʻppi sotib olsa, unga 10 000 soʻm yetmaydi. Bitta doʻppi necha soʻm turadi?



12. Hisoblang.

$$13 \text{ h } 5 \text{ min} - 3 \cdot (2 \text{ h } 48 \text{ min} : 6 + 3 \text{ h } 47 \text{ min})$$

13. Darftaringizga ushbu sonli nurlarni chizing. Har bir sonli nur uchun boʻlimlar qiymatini yozing.



Yondosh mavzu:
O'zbekiston tarixi

Kalendar (taqvim),
vaqt




1. Ushbu muzeylar qachon ochilganini aniqlang. Siz ular haqida nimalarni bilasiz? Eng birinchi va eng oxirgi tashkil topgan muzeyni belgilang.

1966	I.V. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi	1937	O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi
2001	Termiz arxeologiya muzeyi	1996	Temuriylar tarixi davlat muzeyi
1876	O'zbekiston tarixi davlat muzeyi	1939	Toshkent temiryo'l texnikasi muzeyi



2. Nuqtalarning koordinatalarini ayting. Ularni nima birlashtiradi?



10. Takrorlash. Vaqt



3. Hisoblang.

- a) $2 \text{ h } 45 \text{ min } 36 \text{ s} + 6 \text{ h } 12 \text{ min } 22 \text{ s}$
- b) $7 \text{ h } 23 \text{ min } 57 \text{ s} + 1 \text{ h } 58 \text{ min } 42 \text{ s}$
- d) $6 \text{ h } 55 \text{ min } 12 \text{ s} - 2 \text{ h } 32 \text{ min } 11 \text{ s}$
- e) $8 \text{ h } 05 \text{ min } 02 \text{ s} - 4 \text{ h } 18 \text{ min } 45 \text{ s}$



Sutka – bu Yerning o‘z o‘qi atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun zarur bo‘lgan vaqt. Yozuvda 1 d ko‘rinishda belgilanadi.

$$1 \text{ sutka} = 24 \text{ soat}$$

$$1 \text{ d} = 24 \text{ h}$$



4. Hisoblang.

a) soatlarda:

$$5 \text{ d} + 234 \text{ h}$$

$$6 \text{ d} - 68 \text{ h}$$

$$17 \text{ h} \cdot 12 - 4 \text{ d } 12 \text{ h};$$

b) sutka va soatlarda:

$$3 \text{ d } 42 \text{ min} + 6 \text{ h } 18 \text{ min}$$

$$12 \text{ d } 08 \text{ min} - 5 \text{ d } 16 \text{ min}.$$



5. To‘g‘ri fikrlarni toping.

- a) Uch soat o‘n ming sekunddan ko‘p.
- b) Ikki sutka 48 soatdan iborat.
- d) Yetti marta yetti minut sakkiz marta olti minutdan kam bo‘ladi.
- e) Bir yilda 365 sutka bor.
- f) Bir haftada 170 soatdan kam vaqt o‘tadi.
- g) Bir sutkada million sekunddan ko‘p vaqt bor.



6. Yanvar oyida O‘zbekiston tarixi muzeyiga 23 756 nafar o‘quvchi, fevralda 4 378 nafar kam, mart oyida esa yanvar oyidagiga nisbatan 1 149 nafar ko‘p o‘quvchi tashrif buyurdi. Shu 3 oy davomida tarix muzeyiga jami necha nafar o‘quvchi tashrif buyurgan?



7. Sayohat rejasini o'rganing.

- Sayohat qancha vaqt davom etdi?
- Sayohat soat nechada tugagan?

Ketish	-----	8:30
Muzeyga tashrif	-----	2 h 30 min
Tushlik	-----	1 h 15 min
Istirohat bog'ida sayr qilish	-----	1 h 45 min
Shahar bo'ylab sayohat	-----	1 h 45 min

d) Sayyohlar yo'lka bo'ylab piyoda yurishdi. Ular yurgan yo'lning uzunligini toping.

e) Agar sayyohlarning tezligi minutiga 100 m bo'lsa, ular yo'lka bo'ylab necha minut yurishgan?



8. 01.12.2010 sanasi faqat uchta raqam bilan yozilgan. Joriy asrning qaysi so'ngi sanasini uchta raqam bilan yozish mumkin?



9. Sxema bo'yicha masalani tuzing. Uni yeching.



— 1 370 ta



— ?, 5 480 ta ko'p

? marta ko'p



10. Hisoblang.

- $6 \text{ h } 16 \text{ min } 41 \text{ s} + 1 \text{ h } 23 \text{ min } 08 \text{ s}$
- $7 \text{ h } 58 \text{ min } 37 \text{ s} - 1 \text{ h } 25 \text{ min } 31 \text{ s}$
- $4 \text{ h } 17 \text{ min } 42 \text{ s} + 1 \text{ h } 16 \text{ min } 17 \text{ s}$
- $9 \text{ h } 18 \text{ min } 16 \text{ s} - 4 \text{ h } 9 \text{ min } 37 \text{ s}$